

## NEMIS TILINI O'RGANISHDA XATOLAR USTIDA ISHLASHNING ZAMONAVIY METODLARI VA ULARNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

**Omonova Zilolaxon Ubaydullo qizi**

Farg'ona Davlat Universiteti Xorijiy til va adabiyoti: Nemis tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20292178>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nemis tilini o'qitish va o'rganish jarayonida xatolar ustida ishlashning zamonaviy metodlari hamda ularning psixolingvistik asoslari tadqiq etilgan. An'anaviy pedagogikadan farqli o'laroq, zamonaviy lingvodidaktikada xatoga tabiiy o'rganish bosqichi va kognitiv jarayon mahsuli sifatida yondashiladi. Maqolada taniqli nemis metodist olimlari K. Kleppin va U. Steinmüllerning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, dars jarayonida muloqot muvozanatini saqlash va psixologik to'siqlarni bartaraf etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, talabalarda metalingvistik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi "Korrekturzettel" (tizimli tahlil) va "Grammatik-Auktion" (Grammatik kimoshdi savdosi) kabi interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan metodlarning amaliy ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** nemis tili, lingvodidaktika, psixolingvistika, xatolar tahlili, K. Kleppin, U. Steinmüller, muloqot kompetensiyasi, Korrekturzettel, Grammatik-Auktion, ta'lim samaradorligi.

**Annotatsion:** This article examines modern methods of error correction and their psycholinguistic foundations in the process of teaching and learning German. In contrast to traditional pedagogy, modern linguodidactics approaches errors as a natural learning phase and a product of cognitive processes. The article analyzes the scientific views of prominent German methodologists K. Kleppin and U. Steinmüller, highlighting the issues of maintaining communicative balance and overcoming psychological barriers in the classroom. Furthermore, the practical significance of interactive and learner-centered methods, such as "Korrekturzettel" (systemic analysis) and "Grammatik-Auktion" (Grammar Auction), which serve to develop metalinguistic competence in students, is substantiated.

**Keywords:** German language, linguodidactics, psycholinguistics, error analysis, K. Kleppin, U. Steinmüller, communicative competence, Korrekturzettel, Grammatik-Auktion, educational efficiency.

Zamonaviy dunyoda xorijiy tillarni egallash nafaqat muloqot vositasi, balki mamlakatning intellektual salohiyatini belgilovchi strategik resurs hisoblanadi. O'zbekistonning bugungi ochiq tashqi siyosati va Germaniya kabi Yevropa gigantlari bilan o'rnatilgan ko'p qirrali hamkorligi nemis tilini o'rganuvchilar oldiga yangi talablarni qo'yimoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar ta'lim sifatini xalqaro standartlarga (CEFR) muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

Nemis tili Yevropa Ittifoqida eng ko'p so'zlashuvchiga ega til sifatida, ilm-fan, texnika va innovatsiyalar tili hisoblanadi. Shu sababli, o'quvchilarda nafaqat grammatik bilim, balki xatolardan qo'rqmasdan muloqot qilish ko'nikmasini shakllantirish davlat ta'lim dasturlarining o'zagiga aylandi.

An'anaviy pedagogikada xato salbiy holat va bilimsizlik belgisi deb qaralgan bo'lsa, zamonaviy lingvodidaktikada u "o'rganish jarayonining mahsuli" sifatida ko'riladi. Nemis tili o'zining murakkab morfologik tizimi tufayli o'rganuvchidan yuqori aniqlikni talab qiladi, biroq: O'quvchi xato qilishdan qo'rqsa, unda til o'rganishdagi xavotir ortadi. Bu esa o'rganish samaradorligini pasaytiradi.

Xatolar ustida ishlash o'quvchiga o'zining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bugungi kunda xatoni tuzatish emas, balki xatoning kelib chiqish sababini aniqlash metodikadagi eng dolzarb masaladir.

Nemis metodist olimlari xatolar ustida ishlashni shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosi deb hisoblaydilar.

Karin Kleppin ta'kidlaganidek: "Fehler sind notwendige Zwischenschritte beim Erwerb einer Fremdsprache. Sie zeigen nicht das Versagen des Lernenden, sondern den aktuellen Stand seines Lernprozess." (Xatolar til o'rganishdagi zaruriy oraliq bosqichlardir. Ular o'rganuvchining mag'lubiyatini emas, balki uning o'rganishdagi jarayonidagi ayni holatini ko'rsatadi).

K.Kleppinning fikriga qo'shilgan holda aytishim mumkinki, albatta til o'rganishda xatolar qilish tabiiy holatdir. Xatolar o'quvchining mag'lubiyatini emas, balki uning qaysi bosqichda ekanini ko'rsatadi. Inson aynan xatolari orqali o'rganadi va o'z kamchiliklarini to'g'rilaydi. Shuning uchun xato qilishdan qo'rqmaslik kerak.

Shuningdek, Ulrich Steinmüller xatolar haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Die Fehlerkorrektur muss so erfolgen, dass die Kommunikationsabsicht nicht unterbrochen wird." (Xatolarni tuzatish shunday amalga oshirilishi kerakki, muloqot maqsadi va jarayoni uzilib qolmasligi lozim).

Steinmüller ta'kidlaganidek, darsda psixologik muhitni saqlashda muhim. Agar o'qituvchi har bir so'zda to'xtataversa, o'quvchi muloqot qilishdan butunlay voz kechishi mumkin. Demak, xato ustida ishlashda "qachon" va "qanday" tuzatish oltin qoida hisoblanadi.

Xatolar ustida ishlash faqat nazariya emas, balki jonli jarayondir. Quyida nemis tili darslarida qo'llaniladigan samarali usullar keltirishimiz mumkin:

Tizimli tahlil (Korrekturzettel): O'qituvchi o'quvchining inshosidagi xatolarni to'g'ridan-to'g'ri tuzatmay, chetiga maxsus kodlar qo'yadi (G – Grammatik, V – Vokabular, R – Rechtschreibung). O'quvchi o'z xatosini o'zi qidirib topishi miyada neyron aloqalarini kuchaytiradi.

O'yin: "Grammatik Kimoshdi Savdosi" (Grammatik-Auktion): Doskaga o'nta nemischa gap yoziladi. Ularning ba'zilari to'g'ri, ba'zilari xato. Har bir guruhga virtual 1000 yevro beriladi. Guruhlar faqat to'g'ri deb hisoblagan gaplarini "sotib olishlari" kerak.

Bu o'yinlar o'quvchilarni jamoaviy tahlil qilishga, qoidalarni eslashga va xatoni aniqlashda mantiqiy fikrlashga majbur qiladi. Bu usul zerikarli grammatik darslarni jonlantiradi va xatoga nisbatan ijobiy munosabat uyg'otadi.

## **XULOSA**

O'tkazilgan tadqiqotlar va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, nemis tili darslarida xatolar ustida ishlash jarayoni faqatgina lingvistik tuzatishlardan iborat bo'lmay, balki o'quvchining kognitiv rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi murakkab didaktik tizimdir. K. Kleppin va U. Steinmüller kabi olimlarning nazariyalariga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, xatolarni "ijobiy pedagogik imkoniyat" sifatida qabul qilish dars samaradorligini tubdan oshiradi.

Maqolada ko'rib chiqilgan "Korrekturzettel" va "Grammatik-Auktion" kabi metodlar o'quvchilarda metalingvistik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xatolarni tuzatishda differensial yondashuvni qo'llash — ya'ni muloqotning mazmuniga putur yetkazmaydigan xatolarga nisbatan tolerantlik, tizimli grammatik xatolarga esa interaktiv tuzatish usullarini qo'llash — o'rganuvchida nutqiy erkinlikni ta'minlaydi. Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, xatolar ustida ishlash madaniyatini to'g'ri shakllantirish, O'zbekiston ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish sifatini xalqaro darajaga ko'tarishning muhim omillaridan biridir.

### References:

1. Kleppin, K. Fehler und Fehlerkorrektur / K. Kleppin. – Berlin : Langenscheidt, 1998. – 160 S. – (Fernstudieneinheit 19).
2. Steinmüller, U. Kommunikationstheorie und Fremdsprachendidaktik / U. Steinmüller. – München : Iudicium Verlag, 2001. – 245 S.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-5117-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. – 20.05.2021-y.
4. Galskova, N. D. Teoriya obucheniya inostrannim yazikam. Lingvodidaktika i metodika : ucheb. posobiye / N. D. Galskova, N. I. Gez. – M. : Akademiya, 2006. – 336 s.
5. Чернышов, С. В. Психолингвистические основы обучения иностранным языкам / С. В. Чернышов. – N. Novgorod : NGLU, 2011. – 120 s.